

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 220 (1281), 2024-yil 30-oktabr, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ADOLAT BORLIQQA YOLG'IZ ONADIR

yoxud raqamlar hujjatlarda emas, insonlar taqdirida bo'y ko'rsatmoqda

Tahlil

Har bir davlat ko'zlagan taraqqiyot yo'lining asosiy bosqichlaridan biri kambag'al qatlamni yuqori daromadga olib chiqishdir. Rivojlangan, iqtisodiy qudratli qator davlatlar ham bu yo'lni bosib o'tgan va o'tmoqda. Bugun yurtimizda aholi daromadini oshirish, shu orqali ularni kambag'allikdan chiqarish harakati kun masalasiga aylangan. Eng muhimi, pensiya va nafaqalar, ta'lim, infratuzilma, kredit, yo'l, suv, elektr — barcha sohalaridagi o'zgarishlar yagona g'oya, ya'ni inson qadri uchun xizmat qilyapti.



Prezidentimiz raisligida shu yil 11-sentabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu boradagi ishlar sarhisob qilinib, kelgusida amalga oshiriladigan zaruriy chora-tadbirlar belgilab olingani bejiz emas. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish

to'g'risida"gi farmoni va "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim qadam bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, kambag'allikka qarshi kurashish umummilliy harakatga aylanishi ortidan yangi bosqichga ko'chdi. 2021-yilda hokim yordamchilari instituti joriy etilgan edi. Hokim yordamchilari mahallalarda bevosita aholini tadbirkorlikka o'rgatish orqali ularni kambag'allikdan

chiqarish bo'yicha ishlagan. Bu kambag'allikka qarshi kurashishning birinchi bosqichi edi. Endi mazkur jarayon ikkinchi bosqichga chiqyapti. Shu bois, umumiy emas, balki manzilli ishlar bo'yicha topshiriqlar berildi.

Xo'sh, birinchi bosqichda qanday amaliy natijalarga erishildi? Yurtdoshlarimiz turmush tarzida, o'y va qarashlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

Davomi 3-betda

Yuksalish pallasasi

IKKI TILNI MUKAMMAL BILISH BU QAT'IY TALAB ASOSIY MEZONGA AYLANMOQDA

Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalq madaniyati, tarixi va tafakkurining ko'zguvidir. Turli tillarni o'rganish dunyoqarashni boyitadi, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan bahramand etadi, dunyo axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkonini beradi.

Keyingi yillarda O'zbekiston dunyoga ochiq mamlakat sifatida tanildi. Dunyo davlatlari bilan azaliy do'stlik va birdamlik aloqalari mustahkamlanmoqda. Barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Bu esa yetishib kelayotgan avlodning xorijiy tillarni bilishi zarurati yuzaga keltiryapti. Shu bois, kadrlarning har tomonlama yetukligi ona tili qatorida chet tillarni bilishi bilan belgilanayotir.

Bir necha xorijiy tilda erkin muloqotga kirisha oladigan, dunyoda ro'y berayotgan voqealar haqida chet tilda o'z fikrini erkin bayon etayotgan yoshlarni ko'rib havas qilasan kishi. Nufuzli xalqaro tadbirlar, ilmiy anjumanlar, oliy ta'lim muassasalarida o'zga tillarda biyron so'zlayotgan yigit-qizlar o'zimizning qorako'zlar ekani ko'ngilga g'urur bag'ishlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida xorijiy tillarni chuqur o'rgatishni rivojlantirish, o'qituvchi

va yoshlarning qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun "Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab" tanlovi tashkil etilgan, umumta'lim maktablarida bitta kasb va ikkita xorijiy tilga o'rgatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan ana shu e'tiborga bir misoldir. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim tashkilotlariga har yili "til egasi" bo'lgan 500 nafar xorijiy mutaxassisni jalb qilish vazifasi keltirilgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bergan ma'lumotga ko'ra, 2024-2025-o'quv yilida 500 nafar "til egasi" yurtimiz maktablarida ish boshladi.

Bundan tashqari, maktabda ikkinchi xorijiy til o'rgatish borasida ham muhim qadamlar tashlandi. Joriy o'quv yilida 354 ta maktabda 16 mingdan ziyod o'quvchiga ikkita xorijiy tilni o'qitish yo'lga qo'yildi.

Davomi 5-betda

Yangi qonun

KOSMIK SOHADAGI HUQUQIY TIZIM

xalqaro umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda rivojlanmoqda

Kosmik tadqiqot yutuqlaridan tinchlik maqsadida foydalanish yer-suv resurslarini oqilona boshqarish, iqlim o'zgarishlari oqibatini yumshatishda muhim o'rin tutadi.

Davlatimiz rahbari raisligida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "O'zbekkosmos" agentligi Buxoro va Navoiydagi 35 gektar maydonda qum va shamolni ushlab qoluvchi cho'l o'simliklari qoplamasi yo'qolib ketganini aniqlagan ma'lum qilindi.



Shu munosabat bilan mutasaddilarga ishchi guruh tuzib, ushbu viloyatlarning cho'l va yarim cho'l hududida yashil maydonlarni ko'paytirish bo'yicha dastur ishlab chiqish topshirildi. "O'zbekkosmos" agentligi bilan birgalikda cho'llarda ekologik holatni monitoring qilish platformasi ishlab chiqilishi belgilandi.

Bu boradagi sa'y-harakatlar "Kosmik fazo, shu jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ularidan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyat tamoyillari to'g'risida"gi shartnoma (London, Moskva va Vashington, 1967-yil 27-yanvar) asosida amalga oshiriladi.

Mazkur xalqaro hujjatga 114 davlat qo'shilgan. U kosmik fazoning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi 17 moddadan iborat.

O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida mazkur shartnomaga qo'shilishni maqsad qilgan va tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, Prezidentimizning qaroriga asosan, 2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining kosmik tarmog'ini yanada rivojlantirishga qaratilgan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan edi. Unda belgilangan vazifalarga muvofiq, "Kosmik fazo, shu jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish va ularidan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyat tamoyillari to'g'risida"gi shartnomaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun ishlab chiqildi hamda joriy yil 10-oktabrda davlatimiz rahbari tomonidan imzolandi.

Davomi 2-betda

Kun mavzusi

TERMINAL ISHLAMAYAPTI DEGAN BAHONALAR O'TMAYDI

Soliq qoidabuzarligi haqida murojaat qilgan iste'molchi 20 foiz mukofot puliga ega bo'ladi

Yaqinda do'konchaga xaridga kirganimga sotuvchi to'lov terminali ishlamayotganini aytib, naqd pul berishim yoki to'lovni kartadan kartaga o'tkazishimni so'radi. Men o'tkazmani amalga oshirdim va summa jismoniy shaxs nomidagi kartaga tushdi. Qizig'i, bu holat kelasi safar ham takrorlandi. Jarayonda o'tkazmadan olinadigan foiz summasi mening zimmamga tushayotgani kamday, sotuvchi xarid chekini ham bermadi, buning ustiga, xarid summasidan 1 foizni ham qaytarib ololmayman. Iste'molchi sifatida chekini talab qilganimga, biror norozilik bo'lsa, o'tkazma tarixining o'zi kifoya qilishini aytdi.

So'nggi vaqtlarda shunday holatlar ko'p uchramoqda. Ayniqsa, shahardan tashqari joylarda savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar tomonidan xaridorlarga batareya quvvati yo'qligi yoki boshqa sabablarga ko'ra to'lov terminali ishlamayotgani, plastik kartada to'lashning iloji yo'qligi bahona qilinib, naqd pulda savdo qilishga undash

ko'paygan. Qolaversa, xarid chekini bermaslik, karta turiga qarab savdo qilish, elektron to'lovdan bosh tortish holatlari ham uchray turadi. Vaholanki, axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda aholi orasida plastik karta va elektron to'lov usullaridan foydalanuvchilar soni ortib boryapti. Ko'plab insonlar hatto hamyonida naqd

pul olib yurmaydigan bo'lgan. Shunday sharoitda odamlarni naqd pulda savdo qilishga undash yoki zamonaviy to'lov turlaridan foydalanmaslik qanchalik to'g'ri? Odamlar buni tadbirkorning soliq to'lovlardan qochishi deb tushunadi, aslida ham shundaymi? Bunday tadbirkorlik subyektlariga qonunchilikda qanday choralar nazarda tutilgan?

Mavzuga doir dolzarb savollar bilan Soliq qo'mitasi boshqarma boshlig'i Dildora HOSHIMOVAga yuzlandik.

— Avval, bunday harakatlar yashirin iqtisodiyotning bir ko'rinishidir. Yashirin iqtisodiyot — norasmiy bandlik, noqonuniy ish haqi, noqonuniy tadbirkorlik faoliyati yoki tovar va xizmatlarning noqonuniy savdosi. Davlatdan daromadlarini yashirish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga olib keladigan harakatlar yashirin iqtisodiy faoliyat sanaladi va bunday harakatlarga qonunchilikda tegishli choralar belgilangan.

Davomi 4-betda

SANOAT KORXONALARINI VERTIKAL O'STIRISH TAJRIBASI

Surxondaryoda bu qanday natija beryapti?

Mahalliyashtirish iqtisodiyotning yanada barqaror va izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalarning tatbiq qilinishini jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davomi 4-betda

Yangicha yondashuvlar



2024-yil 30-oktabr, 220-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar

MEHNAT MUNOSABATLARIGA OID QONUNCHILIK TAKOMILLASHUVI

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini oladimi?

Mamlakatimiz mehnat munosabatlari tizimida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda mehnatni muhofaza qilish, turli tarmoq va sohalarda ishlayotgan mutaxassislar, ishchi-xodimlar uchun munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilayotir. Bundan tashqari, majburiy mehnat taqiqlangani, ishga o'z vaqtida va munosib haq to'lashning huquqiy asoslari takomillashayotgani inson qadriyatini ulug'lash borasidagi ezu tamoyillarni ro'yobga chiqarishga zamin bo'lyapti.

O'zbekiston Respublikasining joriy yil 2-oktabrdagi "Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti to'g'risidagi 155-sonli konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 22-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni bu jabhadagi ishlar rivojida yana bir muhim huquqiy asos bo'ldi.

ko'rishi, fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag'batlantirishi kabi muhim normalar Bosh qonunimizda aks etayotgani mehnatkashlar huquqini muhofazalashda muhim omil bo'ldi. Shu bilan birga, ish beruvchining mehnatni muhofaza qilishga doir majburiyatlari bajarilishini ta'minlash, mehnat



Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Tashkilot ko'magida O'zbekistonda mehnat sohasida 40 dan ortiq normativ hujjat qabul qilindi, 22 ta xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilindi. Ushbu hujjatlar orqali zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

munosabatlarida vakillik organi (kasaba uyushmalari) rolini, jamoatchilik nazoratining o'imi va ahamiyatini oshirishga oid huquqiy va amaliy ishlar ham takomillashmoqda.

Joriy yil iyulida yurtimizga tashrif buyurgan Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Jilber Ungbo mamlakatimizda mehnatkashlar huquqlarini ta'minlash, ish o'rinlari yaratish va xalqaro konvensiyalarni implementatsiya qilish borasidagi ishlarga yuqori baho bergani buning isbotidir. XMT mamlakatimiz tajribasini xalqaro miqyosda o'rganish va qo'llash uchun muvaffaqiyatli model sifatida ko'rayotgani, O'zbekistonning tashkilot ma'muriy kengashiga saylangani yurtimizda inson qadriyatini ko'zlagan islohotlarning ulkan e'tirofi bo'ldi.

Jumladan, mehnat munosabatlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish, mehnatkashlar huquq va manfaatlarini ta'minlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilyapti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarini munosib himoya qilishga qaratilgan qator normalar mustahkamlandi. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi, homiladorlari qo'li bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilmaslik, ishdan bo'shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlanishi shular jumlasidand.

Ayni paytda mamlakatimizda mehnat muhofazasi sohasidagi huquqiy asoslarni va amaliy ishlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ish joylarida oqibat yengil, og'ir va o'lim bilan tugayotgan baxtsiz hodisalar ro'y berib turgani bu masalaning nechoqliq dolzarbligini yaqqol ifoda etadi. Davlat mehnat inspeksiyasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilning 7 oyida sodir bo'lgan 492

ta shunday baxtsiz hodisa oqibatida jabrlangan, ba'zi hollarda hayotdan ko'z yumgan kishilar ham borligi achinarlidir. Shu bois, bunday muammolarga qarshi kurashish bugungi globalshuv va texnologiyalar yuksalayotgan davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti o'ld konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bu jabhadagi ishlar rivojiga xizmat qiladi.

Mazkur konvensiya bugunga qadar 75 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Hujjatda mehnat faoliyati jarayoni va ishlab chiqarish muhitida mehnat xavfsizligi va gigiyenasini ta'minlash, jumladan, ish joyi yoki ish vaqtida ishchi va xodimlarning sog'lig'iga zarar yetishi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar yoxud xavflarning oldini olishga qaratilgan talablarni yanada kuchaytirish nazarda tutilgan.

Konvensiyada iqtisodiy faoliyatning barcha sohasi qamrab olingan bo'lib, davlat xizmatida va yollanib ishlovchilar, shuningdek, bevosita yoki bilvosita ish beruvchi nazorati ostidagi ishchi va xodimlarga tatbiq etilishi kabi muhim masalalar ko'zda tutilgan, — deydi Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Ravshan Alimov. — Bundan tashqari, konvensiyada belgilangan talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida, xususan, Mehnat kodeksi, mehnatni muhofaza qilish va xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligiga oid qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarida aks etgan. Masalan, konvensiyada qo'llangan asosiy tushunchalar hamda mehnat xavfsizligi talabari mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan. Shuningdek, Mehnat kodeksiga binoan barcha korxonada xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan mehnat sharoiti yaratilgan bo'lishi kerak. Bunday sharoit yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi.

Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi kelgusida sohadagi milliy qonunchilikni hamda Xalqaro mehnat tashkiloti hujjatlarida belgilangan mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga oid me'yorlarni takomillashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalar, kasbiy kasalliklar, ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan xalqaro standartlarni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mehnatkashlar huquqlarini muhofaza etish, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, yurtimizning Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalashuvi uchun zarur sharoit yaratish, taraqqiy etgan davlatlar bilan o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim omil bo'ldi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yangi qonun

KOSMIK SOHADAGI HUQUQIY TIZIM

xalqaro umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda rivojlanmoqda

Boshlanishi 1-betda

Mazkur shartnomaga qo'shilish O'zbekistonga qator xalqaro kosmik huquqlarni taqdim etadi.

Ushbu shartnoma orqali 114 davlat bilan hamkorlikda ishlab, kosmik fazoni tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'ldik, — deydi "O'zbekkosmos" agentligi bo'lim boshlig'i Shohrux Nasrullayev. — Xususan, hech qanday diskriminatsiyasiz kosmik fazo va samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ulardan tinchlik maqsadida foydalanish, ortiqcha to'siqlarsiz erkin ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, bu borada davlatlararo tenglikka ega bo'lish, uchirilgan kosmik obyektlar va ularning ekipaji ustidan yurisdiksiya hamda nazoratni saqlab qolish, kosmik sohada faoliyat yurituvchi davlatlar bilan hamkorlik o'rnatish orqali texnologiyalar transferini jadallashtirish kabi ko'plab normalar shular jumlasidan.

Qonun mamlakatimizning kosmik sohadagi huquqiy tizimi xalqaro umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan holda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Hujjat talablarini to'laqonli bajarish, kosmik tadqiqotlar sohasini rivojlantirish, aerokosmik texnologiyalar orqali iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida Prezidentimizning joriy yil 14-oktabrdagi "2024-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur hujjatda davlat kosmik monitoringning 2024-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi, — deydi Shohrux Nasrullayev. — Jumladan, yer uchastkalarining o'zboshimchalik bilan egallab olinishi, o'mon bilan qoplangan maydonlar chegaralarini belgilash, foydali qazilmalar joylashgan maydonlardan asossiz ravishda va boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari, yangi paydo bo'lgan noqonuniy chiqindi zonalar, suv omborlarining loyqa oqiziqilar bilan to'lib borishi, suv sathi rejimini monitoring qilish, ekinlarning turlari hamda suv iste'moli hajmini aniqlashdan iborat.

Farmon bilan 2024-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida davlat kosmik monitoringini amalga oshirish dasturi va 2024-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining kosmik sohasini rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Bu dasturda iqtisodiy sohalarga ko'maklashish bilan bir qatorda ularda sodir bo'layotgan qonunbuzilish holatlarini aniqlash ham nazarda tutilmoqda, — deydi "O'zbekkosmos" agentligi bosh mutaxassisi Alisher Orifjonov. — Bu o'mon, qishloq, suv xo'jaligi tizimidagi tashkilotlarda juda



yaqshii samara beradi. Misol uchun, qishloq xo'jaligi sohasida kosmik monitoring orqali ekin yerlaridan foydalanishning joriy holati, ekinlarning turlari hamda haqiqatan ekin ekilgan maydonlarni aniqlash mumkin. Shuningdek, mamlakatning barcha hududida yer qaridan, foydali qazilmalar joylashgan maydonlardan asossiz va boshqa maqsadlarda foydalanish holatlarini aniqlash bilan mamlakatning barcha hududini qamrab olish, o'mon bilan qoplangan maydonlar chegarasini belgilash kabi maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan.

Farmonda nazarda tutilgan qoidalardan biri kosmik suratlaridan foydalanishda erkinlik yaratishdir, — deydi Alisher Orifjonov. — Bugungacha Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan aerokosmik suratlar va ulardan olingan hosilalarni bosh shtab ko'rigidan o'tkazish majburiy edi. Ko'rikdan o'tkazilgunga qadar maxfiy grif qo'yilardi. Bu esa o'z-o'zidan kosmik suratlaridan foydalanishda turli qiyinchilik tug'dirardi. Huquqiy hujjatda fazoviy o'lcham aniqligi 0,5-1 metr/pikselgacha bo'lgan suratlar va hosilalari suratga olingan vaqtdan boshlab 5 kun ichida "xizmat doirasida foydalanish uchun" grif asosida, 5 kun o'tgandan keyin esa ochiq, fazoviy o'lcham aniqligi 1 metr/piksel va undan ortiq bo'lgan suratlar va hosilalari o'ta muhim, rejimli va harbiy obyektlarni aks ettirishdan qat'i nazar, nazorat ko'rigidan o'tkazilmaydi va ochiq foydalaniladi.

Farmonga muvofiq, 2025-yil 1-mayga qadar davlat kosmik monitoringi doirasida aniqlangan barcha ma'lumotlar "Space Gov Monitoring" markazlashgan yagona platformasida joylashtiriladi hamda manfaatdor vazirlik va idoralar uchun sohaviy tegishligi bo'yicha sub-platformalar yaratiladi. Shuningdek, 2025-yil 1-martdan boshlab yer qaridan foydalanish bo'yicha masofaviy monitoring va risk-tahlil "Geomonitoring" axborot tizimi hamda SGM platformasi orqali amalga oshiriladi.

"O'zbekkosmos" agentligi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar mamlakatdagi barcha — 2573 ta toruda foydali qazilma konida haqiqatan qazilgan hajmini aniqlashni yo'lga qo'yish maqsadida konlarning raqamli topoxaritasini yaratadi.

Farmonda kadrlar tayyorlash va salohiyatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilgan, — deydi "O'zbekkosmos" agentligi bo'lim boshlig'i Humoyun Rahmonov. — Xususan, "O'zbekkosmos" agentligi va uning muassisligidagi tashkilotlar mutaxassislarini hamda ta'lim muassasalarining sohaga qiziquvchi iqtidorli o'quvchi va talabalarini ilg'or 300 talik ro'yxatga kiruvchi universitetlarga o'qishga yuborish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, kosmik apparatlarni loyihalash, yig'ish va sinovdan o'tkazish uchun yuqori malakali muhandis-konstruktorlar tayyorlash bo'yicha Yaponiyaning "Kyushu Institute of Technology" oliy ta'lim muassasasiga iqtidorli yoshlar magistratura bosqichiga o'qishga yuboriladi.

Mazkur qonun ekologiya, qishloq xo'jaligi, geologiya sohalarida uchrayotgan ko'plab muammolarni bartaraf etish barobarida mazkur jabhalarni ilmiy asosda tadqiq etish uchun ko'plab imkoniyat yaratadi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Agrar tarmoq

Hozir erta bahorda yaxshi niyatlar bilan yerga urug' qadagan dehqon uchun ayni hisob-kitob pallasi. Ya'ni qilingan mehnat va daromadni sarhisob qiladigan payt. Aytish kerakki, bu yil ham dehqonlarimiz uchun barakali keldi. Har bir ekinidan yuqori hosil olindi. Buni bozorlarimizdagi bugungi manzara ham yaqqol tasdiqlaydi.



TANSIQLIKDAN TO'KINLIKKA

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'lidagi ishlar samarasi xususida

Samarqand viloyati ichki va tashqi bozorni arzon hamda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda respublikada yetakchi o'rinlarda, desak mubolag'a emas. Chunki viloyatda keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish ham miqdor, ham sifat jihatidan tobora yaxshilanib boryapti.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida 37,9 trillion so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 104,4 foizni tashkil etdi, — deydi viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi shob'ba boshlig'i Tohir Duvlanov. — Bunda oziq-ovqat sanoatida qiymati 131 milliard 672 million so'm bo'lgan 23 ta, mevasabzavotchilik yo'nalishida qiymati 162 milliard 314 million so'mlik 19 ta, chorvachilikda qiymati 39 milliard 723 million so'mlik 9 ta va boshqa yo'nalishlarda qiymati 515 milliard so'mlik 90 ta loyihaga ishga tushirilgani ayni muddao bo'ldi. Shu bilan birga, jami 183,1 million dollarlik mevasabzavot hamda 65,5 million dollarlik oziq-ovqat mahsulotlari xorijga sotildi.

Albatta, ilgari faqat bayramlarda dasturxonimizni bezab turuvchi tansiq noz-ne'matlar bugun aholining kundalik xaridi sirasiga kirib, oila ratsionini tobora boyitib borayotgani e'tiborga molik.

— Yaqin-yaqingacha bir dona limon kerak bo'lsa, tuman markazidagi bozorga borishga majbur bo'lardik. Limon tansiq hisoblanar,

bozordan donalab xarid qilardik, — deydi bulung'urlik Dilorom Xolmamatova. — Bugun esa tomorqamizdagi ikki sotix issiqxonada limonni o'zimiz yetishtiryapmiz. Bu oilamizga yaxshi daromad keltiryapti. Yaqinda uyimizni ta'mirlatdik. Endi mashina olmoqchimiz. Hosil mo'l, ham limon mevasi, ham ko'chati sotypmiz. Bir so'z bilan aytganda, shaxsiy tomorqamiz biz

uchun dasturxonimiz to'kinligi va daromadimiz manbaiga aylandi.

Keyingi yillarda innovatsion, nostandart yechimlar va amaliyotlar qo'llab, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda aniq ma'lumotlarga asoslangan qishloq xo'jaligini yuritish usullari amalga oshirilmoqda. Viloyatda ham 2024-yilda 10,1 ming gektar

maydonda tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Sug'orish tizimlarini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari o'tkazilmoqda.

Chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish orqali go'sht, tuxum, sut kabi asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko'paydi. Narxlar barqarorligi ta'minlandi. Joriy yilda viloyatdagi barcha toifadagi

xo'jaliklarda go'sht yetishtirish 151 ming tonnani tashkil etib, o'tgan 2023-yildagiga nisbatan 103,8 foiz, sut ishlab chiqarish 690 ming tonnaga yetib, 102,5 foiz, tuxum olish 525,9 million donaga yetkazilib, o'sish sur'ati o'tgan yildagiga nisbatan 106,1 foiz bo'ldi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyoz va imkoniyatlar yangi xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil etilishi omili bo'lmoqda. Buning hisobiga mahsulot yetishtirish hajmi ortmoqda, — deydi viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Odilxon Baqoyev. — Hozirgi kunda viloyatda 1266 ta chorvachilik fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, shundan 874 tasi qoramolchilik, 155 tasi qo'ychilik, 213 tasi parrandachilik, 20 tasi quyonchilik yo'nalishida faoliyat yuritadi. 2024-yil yakuniga qadar esa chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha yana 82 ta loyihaga ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Jumladan, paxta-g'allachilik klasterlari tomonidan qoramolchilik komplekslari qurish bo'yicha umumiy qiymati 364 milliard so'mlik 12 ta loyihaga shakllantirilib, ular yil yakunigacha ro'yobga chiqariladi. Qoramolchilik yo'nalishida 33 ta, parrandachilik yo'nalishida 15 ta loyihaga amalga oshirilishi hisobiga ko'plab yangi ish o'rinlari ochiladi.

Mana shunday loyihalar, sa'y-harakatlar tufayli tovuq go'shti, baliq, asal, limon kabi oziq-ovqat mahsulotlari bugun serob. Ularni bozorlardan, hatto qishloq do'konlaridan ham xarid qilish mumkin. Bu mamlakatimizda uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar, chora-tadbirlar mevasi. Sohadagi loyihalar aholining sog'lom ovqatlanishida, farovonligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Tahlil

ADOLAT BORLIQQA YOLG'IZ ONADIR

yoxud raqamlar hujjatlarda emas, insonlar taqdirida bo'y ko'rsatmoqda



Sardor TOLLIBOYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Odamlarning orzu va maqsadlari yurt taqdiriga bog'lanmoqda

Har kim zamonga o'zidan, atrofidagi odamlardan kelib chiqib baho beradi, deydishi. Yaxshi eslayman, maktab davrida o'qituvchilar kelajakdagi maqsadlarimizni so'raganida aksariyat do'stlarimiz "chet elga chiqib ishlash", deb javob berardi. Boisi, kimningdir akasi, yana kimningdir otasi, hatto onasi ham chetga ishlagan ketgandi.

Yurt o'zini, ammo maqsadlari va orzulari o'zga yurtga tegishli bo'lgan insonlarni ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a. Bir yil bizdan ikki ko'cha narida turadigan Qayum jo'ranning otasi Doniyor aka chet elda ishlay turib og'ir dardni ortirib keldi. Olib kelgan puli dori-darmoniga ham yetmadi. Bir necha yil o'sal yotdi. Bu vaqtda hali endigina 9-sinfga ko'chgan edik. Qayum maktabni yig'ishtirib, mardkorlikka o'zini urdi. Nima qilsin, har kecha og'riqdan baqirib chiqqan ota, farzandlari kelajagini o'ylab yelkasi cho'kkan onani bu yo'ldan faqatgina uning bosh og'li, ya'ni Qayum olib chiqib ketardi. U 9-sinfgacha matematikadan olimpiadaga qatnashib, tuman va viloyat bosqichlarida yuqori o'rinlarni olgandi. Ammo u yelkasiga bevaqt tushgan mas'uliyat ortidan orzularidan voz kechdi. Bu orada men o'qishni ko'zlab poytaxtga otandim. Orqavartidan uzunquloq gaplar eshitdim — Qayum otasining dardiga davoni o'zga yurtdan qidirib ketibdi. Bu orada el-ulus ko'magi bilan Doniyor aka oyoqqa turganini eshitib quvonsam, maktabdagi eng a'lochil bolalardan bo'lgan jo'ranning umr yo'lini o'ylab o'kinardim.

Yaqinda qishloqdagi amakim ko'ng'iroq qilib, bir yangilik aytib qoldi. Emishki, qishloq chetidagi bir necha yildan beri qarovsiz yotgan eski bino o'miga zamonaviy, xususiy bog'cha ko'tarilayotgan ekan. Unga bosh-qosh Qayum jo'ram emish. U shuncha yillar chet elda ishlab to'plagan pulini tadbirkorlikka tikkan, degan o'y xayolimdan o'tdi. Lekin amakimning aytishicha, bankdan kam foizli kredit olib ish boshlagan.

Amakim ham yozga borib suvi pastlab ketadigan qudug'ining suvini ko'paytirish uchun kredit olishini,

bobomdan qolgan uzumzorni to'yintirib sug'orish uchun katta hovuz qilishini maqtanib qo'ydi. Yana tuman hokimligidan mas'ullar har bir xonadonga ijtimoiy holatidan kelib chiqib, kam foizli kredit taqdim qilayotganini aytdi.

Amakimning gaplaridan so'ng ko'z oldimda bank eshigi yonida sarg'aygan, hujjatbozlikdan madori qurigan insonlar jonlandi. Yozda qish uchun yemish g'amlash bilan andarmon, osmondan yomg'ir kutib, shuning hisobiga dehqonchilik qilib yashayotganlar emas, imkoniyatdan unumli foydalanayotgan, kelajakka katta orzular bilan odimlayotgan insonlar xayolimga keldi.

O'zgarishlar nafasi

Bugun birgina bizning qishloqda emas, yurtimizning boshqa hududlarida ham odamlar turmush tarzida, yurish-turishida, o'y-qarashida o'zgarishlar nafasi seziladi. Bularning ortida, albatta, oldindan ko'zlangan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar turibdi.

Keyingi yillardagi iqlim o'zgarishi, turli nuqtalarda avj olayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatlarni rivojiga ta'sirini o'tkazmoqda. Sababi, nizolar o'chog'i faqat o'sha hududlar bilan chegaralanib qolmay, balki iste'mol zanjiri uzilishi ortidan oziq-ovqat, sanoat va yana qator boshqa sohalar rivojiga to'siqinlik qilmoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda davlatlarning asosiy maqsadi kam daromadga ega qatlamlar ish bilan ta'minlash, kasbga o'rgatish orqali ishchi kuchidan unumli foydalanib, kambag'allik darajasini qisqartirishga qaratilmoqda.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish harakati 2020-yilda boshlangandi. 2021-yilda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga yetmasdi. 2023-yil yakuniga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 11 foizga tushdi. Ya'ni bu davrda 3,5 millionga yaqin aholi daromadli qilindi. Mahallalarda kambag'allikni qisqartirish uchun

loyihalar va tashabbuslarning o'rni alohida. Birgina "Sayxunobod", "Uychi", "Zarbdor", "G'ijduvon" tajribalari asosida o'tgan olti oyda 4 mingdan ortiq mahalla sanoat va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirildi. Buning ortidan 1 million 600 ming aholi bandligi ta'minlandi. Bu tajribalar har bir hudud miqyosida o'z natijasini bera boshladi. "Sayxunobod tajribasi" asosida xonadonlarga moliyaviy paket qilib berish, "Uychi tajribasi"ga muvofiq, tuman hokimi va bank rahbarlari tadbirkorlar bilan uchrashib, biznesini kengaytirishga ko'maklashish, "G'ijduvon tajribasi" asosida mahallalarda ko'p qavatli sanoat binolari tashkil etish, "Zarbdor tajribasi"ga ko'ra, sanoat, savdo, xizmat va zamonaviy agrotekhnologiyalar drayver loyihalarini ishlab chiqish orqali odamlarni daromadli qilish tizimi yaratildi.

"Qo'l ostimda yuzdan ortiq xodim bor"

Kambag'allikni qisqartirishning asosiy omillaridan biri xususiy sektor va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratishdir. Buni quyidagi raqamlar orqali baholash. Bugungi kunda 100 dan ortiq ishchisi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashgan. Ulardagi ish o'rni bir yilda 440 mingga ko'paygan. Ushbu korxonadagi ishchilari soni esa 1,7 millionga yetgan. Xususiy sektorda 5 million so'mdan ortiq maosh oladiganlari soni 1 milliondan oshgan. 370 mingi esa 10 million so'mdan ziyod daromad qiladi. Bu yaratilgan qulay sharoitning amaldagi ifodasidir.

Mazkur raqamlar ortidan minglab yurtdoshlarimiz dasturxoniga baraka kirayotgani bor gap. Ayniqsa, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligi oshib bormoqda. G'ijduvonlik Dilnavoz opa ham ozmi-ko'p hayotning mashqatli sinovlaridan o'tdi. Qo'lida hunari bo'lishiga qaramay, muayyan vaqt ishsiz yurgan.



tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so'm arzon kredit, 7 trillion so'm subsidiya ajratilgan. Shuningdek, 260 ming gektar yer dehqonchilik qilib, daromad topish uchun aholiga bo'lib berilgan. Kelgusi uch yillikda esa kambag'allik ko'rsatkichini 11 foizdan 7 foizga tushirish maqsad qilingan.

Albatta, bu ko'rsatkichlarning tag zamirida davlat miqyosida amalga oshirilayotgan

— Ilgari "Ayollar daftarida" turardim. Bugungi kunda ayollarni kasbga o'qitish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida urg'u berilmoqda. Men ham bu imkoniyatlardan foydalanib holda 33 million so'm kredit olib, faoliyatimni boshlaganman. Hozir qo'l ostimda yuzdan ortiq ishchi ishlaydi, — deydi tadbirkor Dilnavoz Saidova. — Mahallada tikuvchilik



sexlari ochganmiz. Bu ham qaysidir ma'noda ayollarni qo'llab-quvvatlash.

Bir insonning o'z yo'lini topishiga ko'maklashish, qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali nafaqat bir oila, balki boshqa qorako'zlarning bandligi ta'minlanayotgani quvonarli hol.

— Yarim yil davomida tumanga 66 milliard so'mga yaqin kredit resurslari ajratildi, — deydi G'ijduvon tumani kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i Toshpo'lat Mardonov. — Uni ishsiz fuqarolarga tarqatdik. Hozirgi kunda 20 ta mahallada "G'ijduvon tajribasi" asosida sanoatni vertikaliga o'stirish yo'nalishida ishlar olib borilmoqda. Yil yakuniga qadar 2 mingga yaqin xotin-qiz va kambag'al oilalar vakili bandligini ta'minlash belgilandi.

"Harakat qilgan odam kam bo'lmaydi"

Davlat budgetining ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlari 2024-yilda 2018-yildagiga nisbatan 4,3 barobar o'sdi. Yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholini ish bilan ta'minlashda xalqaro maydonda yuqori natija berayotgan dunyo tajribalarini o'rganib holda davlat dasturlari ishlab chiqildi. Mahallabay va xonadonbay ishlab tizim joriy etildi. Buning mevasi o'laroq, kichik biznes, xizmat ko'rsatish, hunarmandlik, kasanachilik, dehqonchilik, chorvachilik va parrandachilik kabi bir qator sohalarda yuzlab yangi korxonalar ochildi.

— Oldin faroshlik qilardim. Pishiriq pishirish va non yopishga qiziqishim bor edi. Berilgan ko'mak ortidan pishiriq sexi va novvovxonaga ochildi. Mahalladagi 5 xotin-qiz ham ish bilan ta'minlandi, — deydi farg'onalik Nodira Mamatova. — Oilaviy sharoitimiz yaxshi. Tadbirkorlik ortidan to'ylar qilib, elga osh berdik. Bugun harakat qilgan odam kam bo'lmaydi.

"Tashabbus natijasini hayotim misolida ko'rib turibman"

Mamlakatimizda kechayotgan o'zgarishlar xalqaro maydonda ham e'tirof etilmoqda.

"Dunyoda kambag'al oilalar ko'p, biroq har bir oilaning o'ziga xos kambag'allik tarixi bor. O'zbekistonning qashshoqlikka qarshi kurashishdagi asosiy yutuqi uning yuqori darajadagi manzilligi va individual xususiyatga ega ekanidir. O'zbekistondagi mahallabay tizim har bir muhtoj oilani kambag'allikdan chiqarishda noyob xususiyatga ega", deydi iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti sohibi Abhijit Banerji.

Bugungi kunda O'zbekiston kambag'allikka qarshi kurashishda o'ziga xos tajribaga ega bo'ldi. — O'zimizda 6 jomiz. Ish topolmay boshimiz qotgan vaqtlar ham bo'ldi, — deydi sayxunobodlik Abdumutallib Bozormatov. — Prezidentimizning tumanimizga tashrifidan so'ng 5 sotixli issiqxonaga quridik. Shu bilan oilaviy ish bo'ldi. Bu yil 40 million so'm daromad qildik. Hovlimizda issiqxonadan tashqari asalarichilik, parranda va chorvadan ham daromad qilamiz. Prezidentimiz qayerga borsa ham tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlab, aholi hayoti to'kisligi uchun harakat qilayapti. Samarasini o'z hayotim misolida ko'rib turibman.

Bir vaqtlar odamlar ijtimoiy ahvoli og'irligini idorama-idora hujjat to'g'rilab isbotlagan bo'lsa, bugun eng quyi bosqichda — mahalla tizimi orqali bunga yechim topilayotgani quvonarli hol.

Davlatimiz rahbari bejiz "Odamlarga qancha yordam bermaylik, mahallalar sharoitini yaxshilamasak, kambag'allik qisqarmaydi", deya ta'kidlamadi. Kelgusi yil mahallalar infratuzilmasi rivojiga 1,6 milliard dollar ajratiladi. Bu mablag'ning 1,2 trillion so'mi sharoiti eng og'ir 300 ta mahallada suv nasoslari, quyosh panellari o'rnatishga sarflanadi hamda 2 trillion so'm evaziga vaziyat eng og'ir 500 ta mahallada elektr, yo'l, internet va boshqa infratuzilma masalalari hal etiladi.

Buning ortidan esa yuqoridagi muammolar barham topsa, o'z-o'zidan mahallalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytirib, qo'shimcha ishchi kuchini jalb qiladi. Ya'ni aholi bandligi oshib borishiga yo'l ochiladi.

Shuningdek, "Zarbdor tajribasi" asosida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida kamida 5 tadan drayver loyihani infratuzilma bilan ta'minlash uchun yil yakunigacha 500 milliard so'm, kelasi yili yana 1 trillion so'm ajratiladi. Hokimlarga bu loyihalarni tezlashtirib, yil oxirigacha 150 ming aholini ishli qilish topshirildi.

Ishsizlikning asosiy sabablaridan biri bor imkoniyatlardan unumli foydalanmaslik, bersa yeyman, degan qarash jamiyatning qon-qoniga singib ketganidir. Bunday murakkab vaziyatda inson kamoliga zamin yaratadigan omillar o'z vaqtida ilgari surilgan islohotlar va ichki imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltirish ortidan bo'ladi.

Shoir aytganidek, "Adolat boriqqa yolg'iz onadir". Bugun jamiyatimizda bo'y ko'rsatayotgan o'zgarishlar har bir tizimda adolatning qaror topishi bilan yurayotir.

Yuqorida ko'zlangan rejalar amalga oshsa, minglab yurtdoshlarimizning turmush tarzi yaxshilandi, bugun dunyoga bo'y ko'rsatayotgan O'zbekistonga o'z iqtidor va qobiliyatlari orqali qanot bo'lishiga zamin hozirlaydi.

Islohot

Nigora QUTLIMURATOVA, Xorazm viloyati hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i

Bugun o'zbek ayollarining nafaqat oila va farzandlar tarbiyasidagi o'rni, balki mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hisssasi ham ortib boryapti. Yurtimizda ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qisqasi, jamiyatning teng huquqli, faol va buyyodkor a'zosi sifatida aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Ayollar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, jumladan, bandligini ta'minlash, sog'lig'ini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, turmush darajasini yaxshilashga e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi.



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada

IJTIMOIY MUHTOJLIKDAN FAOLLIK SARI

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi topshirig'i asosida joriy yilda Xorazm viloyatida "Ayollar daftarini"ning beshinchi bosqichi doirasida bir qator ishlar bajarildi. Jumladan, 30 yoshdan yuqori bo'lgan ayollar o'rtasida anketasov'rovnomalari orqali xatlov jarayoni o'tkazildi. Oltita toifa bo'yicha 62 ming xotin-qiz tuman, shahar kengashlarining tegishli sessiyasi qarori asosida "Ayollar daftarini"ga kiritildi. Joriy yilning shu davriga qadar qator mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy daftarlarga kiritilgan xotin-qizlarning 59 ming 614 nafariga amaliy yordam berildi. Ushbu maqsad uchun davlat va mahalliy budget hamda boshqa manbalardan hisobidan 54 milliard 600 million so'm mablag' yo'naltirildi.

Bundan tashqari, viloyatda "Ayollar daftarini"ga kiritilgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rildi. Jumladan, qariyb 41,5 ming ayolning bandligi ta'minlandi. Tadbirkorlik faoliyatini

yo'lga qo'yishi uchun 2 mingga yaqiniga 25,2 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. 6200 dan ziyod ayolning yashash sharoiti yaxshilandi, 14 mingga yaqinining salomatligini mustahkamlash chorasi ko'rildi. Xususan, uzoq yillar sog'lig'idagi muammolaridan aziyat chekkan 30 dan ziyod xotin-qizda noyob jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Nogironligi bor farzand tarbiyalayotgan 3405 ayol moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlandi. 24,5 mingga yaqin ayolga huquqiy, qariyb 30 mingga psixologik yordam ko'rsatildi.

Ushbu imkoniyatdan samarali foydalanib juda ko'plab opa-singillarimiz, imkoniyati cheklangan ayol-qizlarimizning hayoti ijobiy tomonga o'zgarishi bilan birga ertangi kunga ishonchi ham ortdi.

Bugun ayollar nafaqat mehribon ona, balki jamiyatning faol ishtirokchisi va tashabbuskori sifatida ham o'zini yaqqol namoyon qilmoqda. Yurtimizning eng chekka tumanidagi eng chekka mahallasigacha o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar borligi quvonarli, albatta. Muhimi, ularning kasb-hunarli, tadbirkor

bo'lishiga ko'maklashish, eng asosiysi, bandligini ta'minlash davlatimizning doimiy e'tiborida.

Xorazm viloyatida joriy yilda 41 ming 498 xotin-qiz ishsiz sifatida qayd etilgan. Migratsiyadan qaytgan hamda norasmiy band bo'lganlarni rasmiylashtirish hisobiga 67 ming 758 nafarining bandligi ta'minlandi. Ayollarning 23 mingga yaqini kasb-hunarga o'qitildi, 3,5 mingdan ziyodining tadbirkorlik ko'nikmalari va moliyaviy savodxonligi oshirildi. Bundan tashqari, qariyb 15 ming xotin-qiz doimiy ishga, 3145 nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga joylashtirildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlagan 11 ming 592 opa-singilimizga 299,2 milliard so'm imtiyozli kredit ajratilib, bandligi ta'minlandi.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka yo'naltirish juda ko'p muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Jumladan, oilaviy kelishmovchilik va ajralishlar, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik kabi illatlar kamayishiga asos bo'ladi. Shu ma'noda, opa-singillarimizga o'z biznesini yo'lga qo'yish, tadbirkorlik g'oyalari ro'yobida yordam berish, uzoq vaqt bola tarbiyasi bilan band bo'lgan, og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan ayollarga talab yuqori bo'lgan kasblarni o'rgatish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan.

Viloyatimizdan tashqi migratsiyada yurgan fuqarolar soni 92 ming 595 nafar. Shundan 22 ming 180 nafari ayollar. Joriy yilning shu davriga qadar xotin-qizlarning 10 ming 788 nafari migratsiyadan qaytarilib, bandligi ta'minlandi. Faoliyatimiz davomida migratsiyadagi ayollarning



doimiy mehnat va yashash sharoiti, muammolari o'rganilib, ularga tegishli huquqiy maslahat va ko'rsatmalar berib kelinmoqda. Jumladan, viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi mas'ul xodimlari Sankt-Peterburg shahrida migratsiyada yurgan ayollar bilan uchrashib, tegishli tartibda suhbatlashdi. Ularning mehnat faoliyati va ijtimoiy ahvoli o'rganilib, amaliy yordam berildi. Shuningdek, og'ir vaziyatda qolgan ayollarni yashash manziligiga qaytarish bo'yicha tizimli ishlar qilinayapti.

Ayol-qizlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarodan ijtimoiy faol shaxsga aylantirmoq imiz lozim. Zero, ayol faol bo'lsa, farzandlari barkamol, oilasi farovon bo'ladi, jamiyatimiz esa gullab-yashnaydi.

Aholi istasa naqd, istasa plastik karta, istasa elektron to'lov orqali xarid qiladi. Tadbirkorlik subyekti esa to'lovning har qanday turini qabul qilishni ta'minlashi kerak. Ammo xarid cheki terminal orqali berilmaydi. Ko'pchilik shu masalada xato o'ylaydi. Gap shundaki, terminal to'lov qabul qilish apparatidir. Undan chiqqan "qog'oz" xaridorning pul ko'chirib berganini tasdiqlaydi. Xarid cheki esa onlayn nazorat kassasi orqali beriladi.



Kun mavzusi

TERMINAL ISHLAMAYAPTI DEGAN BAHONALAR O'TMAYDI

Soliq qoidabuzarligi haqida murojaat qilgan iste'molchi 20 foiz mukofot puliga ega bo'ladi

Boshlanishi 1-betda

Savdo yoki xizmat ko'rsatish jarayonida plastik kartani rad etganlikka ham javobgarlik belgilangan. Chunki hozirgi kunda yurtimizda savdo yoki xizmat ko'rsatishda nafaqat naqd ko'rinishda, balki naqdsiz to'lov (elektron to'lov) uchun ham barcha zaruriy sharoitlar yaratilgan. Qolaversa, fuqarolarning ko'pi bu amaliyotni mobil ilovalar va boshqa usullar orqali amalga oshirishga odatlanib ulgurdi. Bu ancha tezkor va qulay usul bo'lgani holda savdo hisoboti yuritilishida ham afzalliklarga ega. Chunki pulning kirim jarayoni elektron qayd etib boriladi. Hatto savdoni amaliyotda kartadan kartaga o'tkazish ham mumkin, faqat yuridik shaxsga tegishli plastik kartalar yoki elektron to'lov orqali tadbirkorlik subyekti hisobraqamiga o'tkazilganida bu qoidabuzarlik sanalmaydi. Agar to'lov jismoniy shaxsning kartasiga tushsa, tushumning nazorati yo'q va bu tushumni yashirish orqali tadbirkorlik qo'chgan hisoblanadi. Buning qoidaga zid ekanini xaridor xarid cheki berilmasligidan ham bilish mumkin. Vaholanki, hukumatning tegishli qarori bilan tadbirkorlik subyekti har qanday savdo qilinishida va xizmat ko'rsatganida xarid chekini berishi belgilab qo'yilgan.

Tadbirkorlik subyekti xarid cheki berilmay savdo yoki xizmat ko'rsatilganida tushum pulini kirim qilmadimi, demak, u soliqdan bo'yin tovlayapti. Soliq kodeksida tovar va xizmatlar realizatsiya qilinishida unga chek berish soliq to'lovchining majburiyati etib belgilangan. Nazorat-kassa texnikasi yoki hisob-kitob terminali qo'llanilishi majburiy bo'lgani holda ularni qo'llamasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik, shuningdek, hisob-kitob terminali orqali to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik qonunbuzarlik sifatida baholandi. Bunday holat tadbirkorlik subyekti 5 million so'm, huquqbuzarlik yil davomida qayta takrorlanganida esa 10 million so'm miqdorida jarima solinishiga sabab bo'ladi. Joriy yilda xuddi shunday holat bo'yicha soliq organi xodimlari tomonidan 3 mingdan ziyod sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilgan.

— Demak, savdo va xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari to'lov terminallaridan foydalanish hamda xaridorga chek berishga majbur?

— Albatta. Savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida hisob-kitob terminali ishlatilishi kerak. Chunki hozirgi kun talabi shunday. Aholi istasa naqd, istasa plastik



karta, istasa elektron to'lov orqali xarid qiladi. Tadbirkorlik subyekti esa to'lovning har qanday turini qabul qilishni ta'minlashi kerak. Ammo xarid cheki terminal orqali berilmaydi. Ko'pchilik shu masalada xato o'ylaydi. Gap shundaki, terminal to'lov qabul qilish apparatidir. Undan chiqqan "qog'oz" xaridorning pul ko'chirib berganini tasdiqlaydi. Xarid cheki esa onlayn nazorat kassasi orqali beriladi.

Ana shu onlayn nazorat kassasi har bir savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchasida bo'lishi majburiy. Bu apparat kirimini qayd etib boradi, fiskalizatsiya qiladi va elektron hisobni yuritadi. Soliq organlari tomonidan har bitta ro'yxatdan o'tgan, aholi bilan naqd pulda ishlaydigan tadbirkorlik subyekti onlayn nazorat kassa mashinasini olish talabi qo'yilgan. Barcha mahallada soliq inspektorlari bor, ular buni nazoratga oladi. Ayni paytda yurtimiz bo'yicha 180 mingga yaqin onlayn nazorat kassa mashinasi ro'yxatga olingan. Shu yilning 1-oktabr holatida ushbu onlayn nazorat kassa terminallaridan 792 millionta chek chiqarilib, ular bo'yicha aylanma 193,1 trillion so'mni tashkil etdi. Bu borada hududlar kesimida Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Elektron qurilmalarning yana bir afzalligi tadbirkorlik subyektlari faoliyati, kirim-chiqimi tekshiruvini osonlashtirganida ham ko'rinadi. Avvallari soliq inspektorlari tekshiruv uchun joyiga borib, soatlab, hatto kun davomida savdo qaydlari yozilgan jurnallarni tekshirib, har birini solishtirishga to'g'ri kelgan. Hozir bularning bari soddalashtirilib, onlayn tizimga

o'tkazilgan tadbirkorlar uchun ham qulay bo'ldi. Qulaylik tarafi shuki, tadbirkor o'zida qancha savdo bo'lgani, qaysi tovarlariga ehtiyoj ortgani (tugangani) va biznesidagi boshqa jarayonlarni onlayn kuzatib borib rejalashtirish imkoniyati bo'ladi. Bugungi kunda har bir onlayn nazorat kassa texnikasi maxsus onlayn NKT axborot tizimi orqali real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Qurilmalar ishlatilmagan taqdirda sabablari o'rganilib, qonunbuzilish holatlari aniqlanganida tegishli choralar ko'riladi.

Hozirgi zamonaviy onlayn nazorat kassalari barcha turdagi kartalarni qabul qilish imkoniyatiga ega. Aslida, kassalardan tanlov asosida (narxi, imkoniyati, qulayliklari) foydalanish tadbirkorlik subyekti ixtiyorida, ammo bu iste'molchining noroziligi va xarid chekini bermaslikka sabab bo'lmasligi lozim. Agar qurilmani ishlatmaslikka chindan ham elektr toki yo'qligi, apparat buzilib qolgan kabi holatlar sabab bo'lsa, bunday vaziyatlar qonunchilikda inobarga olingan. Ya'ni bu kabi holatlarda tadbirkorlik subyekti darhol soliq organlariga va texnik xizmat ko'rsatuvchiga (tuzatish yoki vaqtincha almashtirish) murojaat qilishi va buni tegishli tartibda rasmiylashtirib qo'yishi kerak. Tadbirkorning talabiga ko'ra, onlayn nazorat kassa texnikasi ishlaguniga qadar xaridorlarga qog'oz ko'rinishida kvitansiya berishga ruxsat etiladi. Elektron qurilma ishlaguniga qadar tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmaslikka haqqi bor.

Agar hisob-kitob terminali ham ishlaguniga bo'lsa va xaridorlarga to'lovi uchun chek berishning mutlaqo iloji bo'lmasa, o'z-o'zidan aholiga xizmat ko'rsatishga ruxsat berilmaydi. Ya'ni har qanday holatda ham xaridorlarga xarid cheki qog'oz yoki elektron ko'rinishda berilishi shart.

— Xarid chekini so'rab olmagun yoki talab qilmagan xaridorlarning o'zi ham qoidabuzar hisoblanadimi?

— Yo'q, qonunchilikda bu nazarda tutilmagan. Chekin olmaganlik uchun xaridorni ayblash noto'g'ri bo'ladi. Chunki iste'molchi xarid chekini so'raydimi yoki yo'q, uni berish tadbirkorlik subyekti ixtiyorida. Chekin olish-olmaslik yoki olsa ham tashlab yuborish esa xaridorning ixtiyorida. Lekin tovar sotilganida yoki xizmat ko'rsatilganida har qanday shakldagi xarid chekini, albatta, iste'molchiga berishi kerak, aks holda, bu qoidabuzarlik sanaladi. Tasavvur qiling, cheki chiqarib berish uchun qancha vaqt ketadi? Bu vaqtda xaridor o'g'oyib bo'lib qolishi yoki qochib ketishi imkonsiz. Shunday bo'lgan taqdirda ham savdo yoki xizmat ko'rsatuvchi xaridni onlayn nazorat kassaga kirim qilib, cheki chiqarib qo'yishi kerak. Elektron tizim chek chiqarilganini qayd etadi va bu qonun doirasidagi harakat sanaladi.

Hozir odamlar xarid madaniyati ancha shakllanib boryapti. Aholining o'zi xarid chekini so'rab olayotgani ijobiy jihat. Bunga ularni xariddan qaytariladigan "keshbek"larni to'plash ishtiyoqi ham rag'batlantirayotgani ro'st. Birgina joriy yilning sakkiz oyida jismoniy shaxslarga xarid qiymatidan 631 milliard



so'mga yaqin mablag' 1 foiz keshbek sifatida qaytarildi. Bundan tashqari, chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijorat, ya'ni marketpleyslarning ma'lumotlar bazasi soliq organlari axborot tizimi bilan integratsiya qilinib, xaridorlarga bu yil umumiy qiymati 66,2 trillion so'mlik 1,4 milliard dona elektron chek taqdim etildi. Buning natijasida avtomatik tarzda 386,1 million dona elektron chek uchun 175,1 milliard so'm keshbek hisoblandi.

Yuqorida turli bahonalar bilan plastik kartalarni qabul qilmalik, naqd pulda savdo qilishga undash, xarid chekini taqdim etmaslik kabi qoidabuzarliklar haqida gapirdik. Bunday vaziyatlarda asosan, iste'molchilar haq bo'ladi. Ularda shu kabi holatlarda soliq organlariga murojaat qilish, bu orqali hatto mukofot puliga ega bo'lish imkoniyati mavjud. Ya'ni xaridor soliqqa oid huquqbuzarlikka duch kelsa, bu haqda "Soliq" mobil ilovasining "Soliq hamkor" bo'limi orqali shaxsni tasdiqlovchi ro'yxatdan o'tgan holda yozma yoki o'ziga yaqin bo'lgan hududdagi soliq inspeksiyasiga bevosita borib, tegishli ishonch telefoni orqali o'zaki murojaat qoldirishi mumkin. Mobil ilovadan foydalanish davomida "Murojaatingiz uchun mukofot olishni xohlaysizmi?" degan savolga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob beradi. Agar fuqaro mukofot olishni istasa va yo'llangan murojaat o'z tasdiq'ini topsa, tadbirkorga qo'llanilgan jarimaning 20 foizi murojaatchiga beriladi. Hozirgacha ushbu yo'nalishda to'langan mukofotlar summasi 25 milliard so'mdan oshdi.

Kelib tushgan murojaatlar soni esa joriy yil 1-oktabr holatiga 70 mingdan ziyodni ko'rsatyapti. Ular asosida jami 26 ming 400 ta tadbirkorlik subyekti savyor soliq tekshiruvi o'tkazilib, ularga nisbatan 85 milliard so'mdan ortiq moliyaviy jarima qo'llanilgan. Murojaatlarning 99,1 foizida huquqbuzarlik o'z tasdiq'ini topgan. Har bir murojaat, albatta, o'rganiladi va huquqbuzarlik aniqlanmagan taqdirda tadbirkorga chora ko'rilmaydi. Ya'ni murojaatlarni shunchaki pul uchun qilinayotgan harakat sifatida baholash noto'g'ri. Aksincha, bu fuqarolik nazoratini ko'rinshlaridan biri bo'lab, odamlar huquqbuzarliklarga befarq emasligi, o'z haqini tanib borayotganidan dalolat.

— Ammo ko'chada savdo qilayotgan dehqon yoki savdogarda onlayn kassa nazorat terminali bo'lmaydi va hech kim ularidan chek ham so'ramaydi. Buning talabi va tartibi qanday? Kimlar onlayn nazorat kassa apparatidagi savdo qilishi va xizmat ko'rsatishi mumkin?

— Qonunchilikda o'zini o'zi band qilgan fuqarolar mavjud bo'lib, ularga qator imtiyozlar taqdim etilgan. Xususan, bunday shaxslar belgilangan 101 faoliyat turi bilan shug'ullanishi va ularning aylannalari 100 million so'mgacha bo'lganida daromad solig'idan ozod qilingan. Demak, o'zini o'zi band qilgan shaxslarda onlayn nazorat kassadan foydalanish majburiyati yo'q. Lekin savdogarlar bundan mustasno, ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib kassa ishlatishga majbur va chek ham berishi shart. Xaridorlarga qulaylik yaratish maqsadida to'lov terminali va elektron to'lov turlarini qo'llash mumkin, biroq ixtiyoriy.

Hozirgi kunda o'zini o'zi band qilgan fuqaro sifatida ro'yxatdan o'tish mumkin bo'lgan yuzdan ortiq faoliyat turi mavjud. Masalan, xonadonda tikuvchilik qilishdan tortib sartaroshlik, bola parvarishi, repetitorlik, tomorqachilik va hokazo. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va sotish ham shunday faoliyat turlari sirasiga kiradi. Ular bozor hududida soliq to'lamagan savdo qilishi uchun tegishli tartibda o'zini o'zi band qilgan fuqaro sifatida ro'yxatdan o'tishi kerak. Bunda fuqaroga soliq organlari xodimlari yordam beradi. Ro'yxatdan o'tish onlayn tartibda soliq mobil ilovasi orqali qisqa muddatda (bir necha soniyada) amalga oshiriladi. Fuqarodan ortiqcha harakat, yugur-yugur talab etilmaydi. Ro'yxatdan o'tgach, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatini davom ettiraveradi. Ular uchun bu ijtimoiy davom, kredit olish uchun rasmiy daromadga egaligi va kelajdagi yaxshi pensiya uchun manba bo'ladi. O'z o'rnida bu davlat qancha fuqarosi rasmiy bandligi va daromadga ega ekanini bilish uchun ham muhim.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Yangicha yondashuvlar

SANOAT KORXONALARINI VERTIKAL O'STIRISH TAJRIBASI

Boshlanishi 1-betda

Surxondaryoda bu qanday natija beryapti?

Davlatimiz rahbarining joriy yil 17-iyuldagi hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham mahalliyashtirish yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar berilgan edi. Surxondaryo viloyatida mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida qator ishlar qilinayapti.

Surxon vohasida 2024-yil yanvar-avgust oylari davomida 33 ta korxonada tomonidan 132,6 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 176,3 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

— Bugungi kunda mahalliyashtirish dasturi doirasida yigirmadan ortiq turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, — deydi Surxondaryo viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Feruz Haydarov. — Bundan keyingi dasturlarimizda ham import o'rini bosuvchi mahsulotlarni jadallik bilan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bosh maqsadlarimizdan biri sanaladi.

Surxondaryoda sanoatni rivojlantirish borasida berilgan topshiriqlar ijrosi doirasida

ham ishlar izchil davom etyapti. Bugungi kunda hududda 5700 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritayapti. Ulardagi ishlab chiqarishlarning kamchilik va muammolari bartaraf etish maqsadida joylarda sanoat shtablari ham tashkil etilgan.

— Har bir tuman va shaharlarimizda sanoat zonalarni tashkil etish va yuritish shtablari bor. Sanoat korxonalari joriy yilning yanvar-sentabr oyi davomida 8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108 foizga teng bo'ldi, degani. "G'ijduvon tajribasi" asosida sanoat korxonalarini vertikal o'stirish tajribasi asosida viloyatdagi 88 mahallada 124 ta loyiha amalga oshirildi, — deydi Feruz Haydarov. — Asosan, bunda tikuvchilik, qandolatchilikdan yirik ishlab chiqarishgacha ko'tarilib boradi. "Zarbdor tajribasi"ga muvofiq esa har bir tumandan 5 ta loyiha drayver sifatida tanlab olingan. Yil yakuniga qadar 10 mingga ish o'rni yaratmoqchimiz.

Hududlarning ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani



rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning alohida o'rni bor.

— Mahalliyashtirish dasturi doirasida joriy yilning yakuniga qadar 44 ta loyiha

doirasida 253 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Buning natijasida 20 million dollarlik import mahsulotlarini optimallashtirishga erishildi,

eksport prognoz ko'rsatkichlarini oshirish borasida qator ishlar qilinmoqda.

Tadbirkorlikka qaralayotgan e'tibor ortayotgani aholi farovonligini ta'minlab, yangi ish o'rnlari tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kichik va yoshlar sanoat zonalarda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslari, startap loyihalari va amaliy tadqiqotlari natijalari ro'yobga chiqarilishi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalaridagi loyihalari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayapti.

Viloyatda bugungi kunda umumiy 181,3 gektar maydonda 53 ta kichik va yoshlar sanoat zonasida 202 ta loyiha doirasida 270 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. 1672 ta yangi ish o'rni ham yaratilgan. Hozircha beshta tumanda kichik va yoshlar sanoat zonasini tashkil etilgan bo'lib, boshqa tumanlarda ham bu jarayon boshlanayapti. Birgina Termiz shahridagi "Tinchlik" kichik va yoshlar sanoat zonasining o'zida 7 ta istiqbolli loyiha samarali yo'lga qo'yildi, — deydi "Tinchlik" kichik va yoshlar sanoat zonasini bosh mutaxassisi Abduraufov Mavlonov.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-yil 30-oktabr, 220-son

Ta’lim

OCHIQ DARS

O‘qituvchi salohiyatini belgilovchi tamoyillardan biri

Bugun oldimda turgan eng muhim va dolzarb muammolardan biri — O‘zbekiston hududida yashovchi har bir yoshni, millati, tili hamda dinidan qat’i nazar, barkamol, yetuk, ongli, fidoyi, ijtimoiy faol fuqaro etib tayyorlashdir. Chunki jamiyat manfaati yo‘lida barcha bilim, qobiliyati va iste’dodini bag‘ishlashga tayyor yetuk insonlar, uddaburon yoshlar, faol fuqarolar bo‘lmasa, mamlakatni dunyodagi eng ilg‘or davlatlar safiga qo‘shish qiyin kechadi.

interfaol metodlaridan foydalanilgan holda akademik guruhlarda tasdiqlangan jadval bo‘yicha, oldindan e‘lon qilingan mavzu asosida o‘tkaziladi.

Ochiq darslardan professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, yosh pedagoglarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llagan holda mashg‘ulotlar o‘tishga o‘rgatish, davlat ta’lim standart talablari (kasbiy standart) asosida kasbiy va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashirish kabi asosiy maqsadlar ko‘zda tutiladi.

Talablar va shakllar

Har qanday ochiq dars tayyorlanishdan boshlanadi. Dastlab professor-o‘qituvchi ochiq dars o‘tish vaqtini optimal rejalashtirish, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, foydalanilgan ushbu talablar olingan manbalarni chuqur va atroflicha o‘rganishi, mashg‘ulot turiga qarab, uslub va vositalarni to‘g‘ri tanlay olishi zarur.

Kafedralarda muayyan o‘qituvchi tomonidan ochiq dars o‘tishi haqida kamida bir hafta oldin e‘lon beriladi. Universitet elektron platformasiga ushbu e‘lon joylashtirilishi, unda mashg‘ulot mavzusi, professor-o‘qituvchining ism-familiyasi, ilmiy darajasi, unvoni, shuningdek, dars o‘tiladigan joy, kun, vaqt hamda akademik guruh raqami va ta’lim yo‘nalishi ko‘rsatilishi zarur. Ochiq darsga turdosh kafedra yoki oliy ta’lim muassasalar professor-o‘qituvchilari, ishlab chiqarish korxonalar mutaxassislari, akademik litsey

etish, attestatsiyadan o‘tkazish, ilmiy unvonlar berishda muhim omil.

Ko‘p hollarda yosh o‘qituvchilarda “ochiq darslar faqat ochiq ma’ruza mashg‘ulotlaridagina iborat” degan yangilash tasavvuri uyg‘onganini kuzatamiz. Aslida, ochiq dars ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya shakllarining barchasida o‘tkazilishi mumkin. Zero, ochiq dars ilmiy, amaliy va metodik ahamiyatga ega.

Ma’ruza shaklida o‘tkaziladigan ochiq dars ishlanmasida yoritilayotgan mavzuning aniq qiyosli, zamonaviy ilm-fan rivojida o‘rni, shuningdek, fanlararo aloqadorlik, muammoli vaziyatlar mavjudligi, mavzuning ilmiy asoslangani bilan talabalarining puxta bilim olishini ta’minlashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg‘ulotlar shaklidagi ochiq darslar olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash uchun dastlabki sharoitni ta’minlovchi, amalda foydalanish imkoniyatini muhokama qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulot shaklidir. Dars davomida ilm-fan rivojida zamonaviy yutuqlar ko‘rib chiqilishi, nazariya va amaliyot uzviylik ochib berilishi zarur. Bu shaklida mashg‘ulotlarda muhokama qilinayotgan material talabalarning kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta’minlashi, turli masala va misollar yechish, keyslar, muammoli topshiriqlarni bajarish, o‘lchashlar, taqqoslashlar, hisoblashlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi zarur.

Ochiq laboratoriya mashg‘ulotlari shaklidagi ochiq darslar nazariy bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash, talabalarning mustaqil tajriba bajarish malakasini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarni tashkil qilishda tajriba uchun kerakli buyumlar, zarur jihozlar, virtual laboratoriya ishlab chiqarilgan mashg‘ulotlar, hisoblashlarni amalga oshirishga yo‘naltirilishi zarur.

Talabalarning mavzu doirasidagi muhim masalalarni chuqur o‘rganish yuzasidan mustaqil ishlashi, jamoa bo‘lib muhokama qilishini tashkil etish esa ochiq seminar mashg‘ulotlaridir. Mavzu o‘rganilgunga qadar professor-o‘qituvchi talabalar uchun savol va topshiriqlar ishlab chiqadi. Kirish mashg‘ulotida u talabalarni materialning mazmuni, qilingan ishning xarakterini bilan qisqacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminar uchun topshiriq beradi va tayyorlanishi uchun muayyan adabiyotlarni tavsiya etadi. Ba’zi vazifalar hamma uchun umumiy bo‘lsa, ba’zilari ayrim talabalarga yoki 3-4 kishidan tuzilgan kichik guruhlariga beriladi. Bunda hamma talabalar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishi kerak. Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko‘riladi. Talabalar tavsiya etilgan adabiyotlarni o‘rganadi, material yig‘adi, har xil kuzatuvlar o‘tkazadi, ba’zi axborotlar yuzasidan tezislar tuzadi. Ochiq seminar mashg‘ulotlarida talabalar axborot beradi, namoyish etiladigan turli ma’lumotlarni ilova qiladi.

Bugungi ta’lim tizimiga izchillik bilan kirib kelayotgan yangi standartlar amaliy yo‘naltirilgan darslarning ustuvorligini nazarda tutmoqda. Xususan, tilimizda “bilim va malakalarning kompleks qo‘llanishi darsi”, “malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish darsi” degan iboralar paydo bo‘ldi. Ayni paytda bu kabi dars turlarining ochiq darslar uchun eng samarali ekanini davr o‘zi isbotlamoqda.

Ochiq darsni tayyorlash va o‘tkazish jarayonida ba’zi kamchilik va xatolar ham uchraydi. Buni amaliyotda kuzatamiz. Xususan, ko‘p hollarda zamonaviy pedagogik yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanganda bir-biri bilan aralashib yuboriladi, texnologiya belgilari o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik ta’minlanmaydi.

Ba’zan o‘qituvchi yoki bu pedagogik harakatlarni loyihalashtirib, namoyish qiladi, lekin ularni asoslab bermoqda. Ayrim paytlarda o‘qituvchi butun dars mobaynida faqat o‘zining bilimni namoyish qiladi, talabalarni esa o‘quv jarayoniga yetarli darajada jalb qilmaydi. Ba’zi hollarda ochiq darsda o‘yin texnologiyasi qo‘llanib, o‘qituvchi shu darajada berilib ketadiki, darsning asosiy mazmunidan ko‘ra o‘yin ustuvor bo‘lib qoladi. Ba’zan ochiq dars o‘tishda o‘qituvchining haddan tashqari metodlarni ko‘paytirib yuborish holati ham uchraydi. Bunda ham talabalar darsning asl mazmun-mohiyatidan ko‘ra ko‘proq metodlarga bog‘lanib qoladi.

Har qanday, jumladan, ochiq dars sifatining asosiy mezon o‘yin-kulg‘i, turli ush turlaridan foydalanish emas, talabalarning tayyorgarligi, dars maqsadlariga erishishdir. O‘qituvchining madaniyati, intellektual va axloqiy qiyofasi dars samaradorligining asosiy shartlaridan.

ENGLISH

Yuksalish pallasasi

IKKI TILNI MUKAMMAL BILISH

BU QAT’IY TALAB ASOSIY MEZONGA AYLANMOQDA

muhim ahamiyat kasb etadi. Til bilish boshqa mamlakatlarning an’analari, urf-odatlari, adabiyoti va san’ati bilan yaqinroq tanishish, yurtimizda kechayotgan yangilanishlar haqida o‘zga tillarda gapirib bera olish, chet elliklarni ana shu o‘zgarishlardan boxabar qilish uchun ajoyib imkoniyatdir, — deydi u.

Yurtimiz dunyo tamadduniga beshik bo‘lib kelgan. Buyuk allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bezir hissasi hanz il-fan rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Bugungi yoshlardan umid katta. Bilimli, salohiyatli, tashabbuskor yoshlar yangi Uyg‘onish davriga poydevor qo‘yishga ishonch bildirilmogda. Ularning o‘qish, izlanish yo‘lida dadil odimlayotgani quvonarli.

— Chet tillarni o‘rganish nafaqt dunyoqarashingizni kengaytirish usuli, balki shaxsiy, madaniy va professional o‘rish uchun foydali vositadir, — deydi 74-umumta’lim maktabining 10-sinf o‘quvchisi Islom Tolibjonov. — Hayotdagi maqsadingizdan qat’i nazar, chet tilda gapirish yangi imkoniyatlar va istiqbolga yo‘l ochadi. Shu bois, xorijiy tillarni chuqur o‘rganishga harakat qilyapman. Bunda ingliz tili ustozim Rayn Kruzning

— Kelgan kunimdan hamma meni yaxshi kutib oldi, — deydi Rayn Kruz. — Hamkasblarim maktabni, bolalarni, dars jarayonlarini o‘rganishimga ko‘mak berdi. Uy-joy masalasi ham tezda hal etildi. Men hech qanaqa qiyinchilikka uchramadim. Xalqimizning o‘zganing mushkuliga berqar emaslighi, ikkilanmasdan darrov yordam qo‘lini cho‘zishi menga juda yoqdi.

U ingliz tili, asosan, real hayotda qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi. Tilni faqat o‘qish emas, aynan qo‘llashga yo‘naltirilgan

— Situatson metodlardan foydalanyapman, — deydi Jeyms. — Bunda men ko‘proq o‘yinlarga urg‘u beraman. O‘quvchilarga har xil vaziyatli holatlar, muhit yarataman. Shu vaziyatlarda ular o‘zini tutishni, gapirishni o‘rganadi. Rolga kirishishning ko‘pgina ustunliklari bor. Kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Kuzatib kelyapman, ko‘pgina o‘quvchilar jamoa oldida nutq so‘zlash kerak bo‘lsa, tayyor matn robotga o‘xshab yodlab olib, shuni gapiradi. Roll o‘yinlar esa uning kreativ fikrlashni, o‘z fikrini erkin bayon etishi, nutqi rivojlanishiga yordam beradi. Men o‘quvchilar va mahalliy hamkasblarimga xorijiy til muhiti, real muhitni berishni, uni his etirishni xohlayman va shuning uchun keldim. Odamlar dunyo bo‘yicha cheklangan resursga ega. Har doim ham xorijlik odam bilan muloqotga kirishishga imkoniyat bo‘larmaydi. O‘sha imkoniyatni berish, haqiqiy o‘qitish muhitini yaratish uchun kelganim.

Bir insonni, boshqa bir jamiyat vakilini to‘g‘ri tushunish o‘zining qanday hayot kechirishini anglay olishiga ko‘mak beradi. Undan tashqari, ikki-uch tilda gapira oladigan odamlarning bita tili biladiganlarga nisbatan talihli fikrlash kuchliroq bo‘ladi.

“Bir tilni bilgan — bir odam, ikki tilni bilgan — ikki odam” degan gap bor. Qolaversa, milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash eng ustuvor vazifa sanalgan bir davrda ta’lim muassasalariga xorijlik “til egalari”ni jalb qilish innovatsion g‘oyalarning dadil tashabbuskori bo‘lgan iqtidorli yigit-qizlar kamol topishiga xizmat qiladi.

hissasi katta bo‘laypti. Jonli misollar, muloqot va o‘yinlarga asoslangan mashg‘ulotlar juda qiziqarli.

Til o‘rgatishni ommalashtirish dunyo bozorida raqobatbardosh, talabgir, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi. Bugun mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishga berilayotgan e’tibor zamirida ham shu maqsad mujassam. Davlatimiz rahbari bu haqda: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanimiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilni mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylinishi lozim”, degan edi.

Yurtimizda o‘qitishning interfaol usullari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o‘tayotgan xorijlik mutaxassislar o‘quvchilarni chet tili o‘zlariga qalay va samarali, mukammal o‘rganishda kamabasta bo‘layotir. Ulardan biri Jeyms Butenhamdir.



Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Rayn Kruz mamlakatimizga ikki yil oldin sayyoh sifatida kelgandi. Tinch va osoyishta, qadimiy va navqiron shaharlarimiz, mehmondo‘st va bag‘rikeng xalqimiz unda katta taassurot qoldirdi. O‘z vatandam tashqarida ingliz tilini o‘rgatish istagida yurgan o‘qituvchini o‘zbek yigit-qizlarining til bilishga ishtiyoqi befarq qoldirdi. Ta’lim tizimidagi islohotlar, xususan, xorijiy tillarni o‘qitishga qaratilayotgan e’tibor bilan tanisharkan, O‘zbekistonda ishlash hayotiga yangicha mazmun bag‘ishlashi, munosib shogirdlar yetishtira olishi, mehnatning samarasini ko‘rishiga ishonchi ortib bordi.

O‘z yurtiga — AQSHga qaytgach, hamkor tashkilotga uchrashib, O‘zbekistonda ishlash istagini bildirdi. Joriy o‘quv yili boshida Uchtepa tumanidagi 74-umumta’lim maktabida ingliz tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat boshladi.

— Kelgan kunimdan hamma meni yaxshi kutib oldi, — deydi Rayn Kruz. — Hamkasblarim maktabni, bolalarni, dars jarayonlarini o‘rganishimga ko‘mak berdi. Uy-joy masalasi ham tezda hal etildi. Men hech qanaqa qiyinchilikka uchramadim. Xalqimizning o‘zganing mushkuliga berqar emaslighi, ikkilanmasdan darrov yordam qo‘lini cho‘zishi menga juda yoqdi.

— Situatson metodlardan foydalanyapman, — deydi Jeyms. — Bunda men ko‘proq o‘yinlarga urg‘u beraman. O‘quvchilarga har xil vaziyatli holatlar, muhit yarataman. Shu vaziyatlarda ular o‘zini tutishni, gapirishni o‘rganadi. Rolga kirishishning ko‘pgina ustunliklari bor. Kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Kuzatib kelyapman, ko‘pgina o‘quvchilar jamoa oldida nutq so‘zlash kerak bo‘lsa, tayyor matn robotga o‘xshab yodlab olib, shuni gapiradi. Roll o‘yinlar esa uning kreativ fikrlashni, o‘z fikrini erkin bayon etishi, nutqi rivojlanishiga yordam beradi. Men o‘quvchilar va mahalliy hamkasblarimga xorijiy til muhiti, real muhitni berishni, uni his etirishni xohlayman va shuning uchun keldim. Odamlar dunyo bo‘yicha cheklangan resursga ega. Har doim ham xorijlik odam bilan muloqotga kirishishga imkoniyat bo‘larmaydi. O‘sha imkoniyatni berish, haqiqiy o‘qitish muhitini yaratish uchun kelganim.

Bir insonni, boshqa bir jamiyat vakilini to‘g‘ri tushunish o‘zining qanday hayot kechirishini anglay olishiga ko‘mak beradi. Undan tashqari, ikki-uch tilda gapira oladigan odamlarning bita tili biladiganlarga nisbatan talihli fikrlash kuchliroq bo‘ladi.

“Bir tilni bilgan — bir odam, ikki tilni bilgan — ikki odam” degan gap bor. Qolaversa, milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash eng ustuvor vazifa sanalgan bir davrda ta’lim muassasalariga xorijlik “til egalari”ni jalb qilish innovatsion g‘oyalarning dadil tashabbuskori bo‘lgan iqtidorli yigit-qizlar kamol topishiga xizmat qiladi.

hissasi katta bo‘laypti. Jonli misollar, muloqot va o‘yinlarga asoslangan mashg‘ulotlar juda qiziqarli.

Til o‘rgatishni ommalashtirish dunyo bozorida raqobatbardosh, talabgir, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi. Bugun mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishga berilayotgan e’tibor zamirida ham shu maqsad mujassam. Davlatimiz rahbari bu haqda: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanimiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilni mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylinishi lozim”, degan edi.

Yurtimizda o‘qitishning interfaol usullari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o‘tayotgan xorijlik mutaxassislar o‘quvchilarni chet tili o‘zlariga qalay va samarali, mukammal o‘rganishda kamabasta bo‘layotir. Ulardan biri Jeyms Butenhamdir.



G'ofur ABDILAKIMOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy boshqarmasi boshlig‘i, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun, tabiiyki, o‘qituvchi pedagoglar malakasi va mahorati yuksak bo‘lmog‘i lozim. Bugun yoshlar juda ilg‘or fikrlamoqda. Demak, darslarni ham shunday ilg‘or fikrli yoshlar talabiga mos, yuqori darajada tashkil etish uchun o‘qituvchi har bir mashg‘ulotga muntazam tayyorgarlik ko‘rishi, kasbiy mahoratini izchil oshirib borishi zarur. O‘qituvchi mahoratini, tajribasini ko‘rsatadigan mezonlar juda ko‘p. Shulardan biri ochiq darsdir.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari 2024/2025-o‘quv yilining birinchi yarim yilida 1366 ta ochiq dars o‘tishi rejalashtirilgan. Jumladan, 2024-yilning sentyabrda 148 ta, oktabrda 568 ta ochiq dars tashkil etildi.

Xo‘sh, ochiq dars deganda qanday mashg‘ulotni nazarda tutamiz? Ularning o‘ziga xosligi nimada?

Ochiq dars mohiyati va maqsadi

Ochiq dars — o‘qituvchining mahorati, ijodkorlik, novatorlik ko‘nikmalari namoyon bo‘ladigan mashg‘ulot. Unga tayyorgarlik jarayoni pedagog uchun o‘z malakasini oshirish shakli hamdir. Chunki aynan ochiq darsga tayyorlanish va o‘tkazish jarayonida o‘qituvchi bor tajribasini anglash va tuzishga jadal yo‘naltiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida ochiq darslar bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Ushbu mashg‘ulotlar rejasida kafedralardagi professor-o‘qituvchilar tomonidan tuzib chiqiladi. So‘ng o‘quv-uslubiy kengash yig‘ilishida muhokama qilib ma‘qullangach, fakultet dekani va o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

Tayyorgarlik jarayoni va darsni o‘tkazish amaliyotida o‘qituvchi chinakam ma‘noda tadqiqotchiga aylanadi. Jumladan, ochiq dars o‘tiladigan fan, mavzu, ta’lim yo‘nalishi, guruh, auditoriyani belgilaydi. Ochiq dars o‘tish bilan bog‘liq ilmiy-uslubiy, texnik ziddiyatlar va muammolarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish choralarni ko‘radi. O‘tkazilgan darsning kuzatuvchilari nazari bilan tahlil qilinishi orqali e’tirof etilgan muayyan yutuqlarini kelgusida yanada rivojlantirish, ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi. Eng muhimi, jarayonni yakunida o‘qituvchi-pedagogning o‘zini o‘zi takomillashirish ehtiyoji yuzaga keladi. Bu darsning muhimligi ham ana shunda.

Bunday mashg‘ulotlar barcha professor-o‘qituvchilar tomonidan bir yilda kamida 4 marta, ya’ni har semestrda 2 marta o‘tkaziladi. Ochiq dars mavzusini tanlayotganda oldingi o‘quv yilidagi mavzular aynan takrorlanmasligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Darslar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qitishning



Mansur Toshmatov tavalludining 70 yilligiga

“SAN'ATIM – HAYOTIM, USIZ HECH KIMMAN”

O'zbekiston xalq artisti Mansur Toshmatov bilan suhbatlashish uchun Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutiga bordik. Ustoz ijodkorni yoshlar qurshovida ko'rdik. Ular orasida qator xalqaro tanlovlar g'oliblari, ijodi bilan tanilib, munosib taqdirlanayotganlar borligidan xabardor bo'ldik. Ustoz esa 70 yoshda ham mana shunday umidli yigit-qizlarni kamol toptirishga munosib hissa qo'shmoqda.

G'anijonning ashula aytadigan o'g'li

O'zbekiston xalq artisti G'anijon Toshmatovning farzandlari (6 o'g'li, bir qiz) orasida bolalikdan musiqaqam mehri tushgan Mansur Toshmatovga aslida Ma'mur ismi qo'yilganini ko'pchilik bilmaydi. Biroq uning estrada san'ati fidoyilaridan ekanini yaxshi biladiganlar kam emas. Zero, ustoz san'atkor Jo'raxon Sultonov tufayli o'zlasib ketgan Mansur ismi qahramonimizni elga tanitdi.

Maktabni tamomlayotgan kezlari estradaga mehri tushgan Mansur musiqali teatr aktyorligi yo'nalishini tanlagan edi. O'sha pallada qishloq xo'jaligi institutining “Guldasta” ansambliga ham taklif qilingan. Unga bu yerda ko'rinib tursa, institutga qabul qilinishi oson bo'lishi aytilgan. Biroq otasining “Ketmon chopishni bilasanmi? U yerda shunaqa ishlarni biladiganlar o'qiydi. Agronom bo'lish kerak, nimadir yetishtirish kerak”, degani yigitni o'ylantirib qo'yadi. Shundan so'ng Toshkent teatr va rassomlik institutiga boradi.

Maktabni bir tilida tamomlagani bo'is, institutda rus o'qiyotganida, tajribali ustozlar qo'lida shakllandi. Musiqaga muhabbati barcha qiyinchiliklardan ustun keldi. Talabalik chog'idaydaq “Yalla” estrada vokal cholg'u ansambli ijdod qildi.

O'zlashtirishda faqat meni musiqa maktabiga berishgan. Bola edim, aka-ukalarimga o'xshab miriqib futbol o'ynagim kelardi, biroq dangsa ketardim. Kompozitor Sharif Ramazonovdan musiqa ta'limini oldim. Uyimizga Tamaraxonim, Halima Nosirova, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Turg'uboyeva tez-tez kelib turardi. Askiyalari, mushoiralari bo'lardi. Otam musiqa maktabiga borishimni aytganini, mehmonlar ko'proq menga e'tibor qaratar, “Sen G'anijonning ashula aytadigan o'g'limisan?” deb so'rab qo'yardi. Choy tashib, xizmat qilib yurib, katta san'atkorlar nazariga tushgan ekanman. Chindan ham “G'anijonning ashula aytadigan o'g'li”ga aylandim. O'sha paytlari biz, bolalar ularni shunchaki dadamizning mehmonlari deb bilibmiz. Hozir san'atimiz darg'ayl uyimizda ko'p bora mehmon bo'lganidan faxrlanamiz.

O'g'lining chet el qo'shiqlarini binoyidek aytayotganini eshitgan G'anijon aka uning shu

ovoz bilan katta ashular ham aytishini istardi. Zero, serqirra san'atkorning o'zi “Ushshoq”, “Segoh”, “Nasri segoh”, “Dugoh”, “Farg'ona buzrug'i”, “Chapandozi bayot” kabi o'nlab maqom yo'li, “Yalang davron”, “Nisor”, “Munjojot”, “Tanovar”, “Tong otguncha” kabi xalq kuylarini, o'zi bastalagan “Kezarman”, “Guljamol” singari murakkab asarlarni maromiga yetkazib ijro etgan. Dutorchi qizlar ansambli va taklif etganiga qadar qator teatrlar, turli ansambllarda mehnat qilib, mumtoz musiqa san'atimiz rivojiga hissa qo'shdi. Shunday san'atkorning farzandi nega estrada yo'nalishini tanlagani haqidagi savol suhbatdoshimizga ko'p berilgan. Bunga javoban u xalqimiz orasida katta ashularni maromiga yetkazib aytadiganlar ko'pligi, estradada ham O'zbekistonda dunyoga tanitish kerakligi haqida o'ylaganini aytadi. Shu ma'noda, u estrada san'atini mukammal egalladi. Xalqaro tanlovlarda tanila bordi. Adabiyotni qo'shiq orqali ifoda qilgani uchun Nobel mukofotini olgan amerikalik Bob Dilanga havasmand bo'ldi. Bundan tashqari,

yoshlarga yetarlicha bilim berish mumkin. Hozir ayrim o'qituvchilar ko'proq kitob o'qish, o'z ustida tiniqsiz ishlash kerakligini tushunib yetmayapti. Badiiy kitob o'qish, she'r yodlash san'atkorning so'z boyligini oshiradi, nutqini ravon qiladi, xotirasini mustahkamlaydi. Havaskor bo'lib qolib ketayotgan yoshlarda shu jihatlar yetishmayapti. Biroq havaskorlik professionalikdan o'zib ketayotgani achinarli. Professional katta avlod vakillarining etagidan mahkam tutmayapti ular. Shu ma'noda, san'at yo'nalishidagi oliyog'ohlarda, avvalo, o'qituvchilarning saviyasiga e'tibor berish kerak, — deydi san'atkor.

Davlatimiz rahbari Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutiga tashrif buyurganida bu yerda tahsil olayotgan xalqaro arenalarda o'zbek san'ati va madaniyatini keng targ'ib qilish kerakligini ta'kidladi.

— Buning uchun mamlakatimizda barcha sharoit bor, — deydi ustoz san'atkor. — Qator davlatlarni O'zbekiston bilan qiyoslaganda bir jihatdan xursand bo'laman: rivojlangan mamlakatlarda ham festival, tanlovlarda yoshlarga bizdagidek mukofotlar yo'q. Joriy yilda Bo'zotav



konkurslardagi chiqishlariga mahliyo bo'lgan. Ular bu ashularni sevib tinglaydi. Dunyoning qaysi joyida yurmasin, musiqa olamini kuzatib boruvchilar uni darhol tanigan. Bugun tajribali ustoz 70 yoshni qarshi olayotgan bo'lsa-da, institutimiz professori sifatida kadrlar tayyorlash, o'zining maktabini yaratishda davom etadi.

“Nafaqada ekanimni tan olgim kelmaydi”

Ayni kunlarda 70 yillik yubileyiga tayyorgarlikdan qahramonimizning qo'li qo'liga tegmayotir. O'zbekiston davlat filarmoniyasi huzuridagi jaz orkestri rahbarligidan tashqari oliyog'ohlarda dars berish osonmas axir. Mehnat insonni ulug'laydi, deganlaridek, Mansur Toshmatovning ijodi munosib qadrini topgan.

— “Mehnat shuhrati” ordenini nafaqat qilgan ishlarim mukofoti, balki kelajakda bajarishim kerak bo'lgan ishlarga ruhlaniruvchi mas'uliyat sifatida qabul qildim, — deydi Mansur aka. — Kelgusida o'zbek milliy estrada san'atini yanada rivojlantirish, jahonga tanitish va keng targ'ib etish borasida bundan ham ko'p sa'y-harakat qilish niyatidaman. Asosiy vazifam — orkestr rahbarligi. Shuningdek, alohida estrada institutida vokal bo'yicha dars berayotman. Mamlakatimiz va chet elda ham o'z muxlislariga ega Sevara Nazarxon, Larisa Moskal'yova kabi san'atkorlarga ustozlik qilganim, ko'plab yoshlarimizning yutuqlariga hissa qo'shayotganimdan g'oyat baxtliyman. Hali ham yagona maqsadim — bor tajribamni ana shunday umidli yoshlarga ulashish, ularning buyuk san'atkor bo'lib yetishishiga erishish.

— Mansur Toshmatovdan oldin boshqa ustozlardan ham saboq olganman. Ustoz bilan ishlayotganimga esa bir yildan oshdi. Avvaliga bu inson bilan ishlay olmasam kerak deb o'ylaganman, — deydi yosh shogirdlaridan biri Sevara To'lanova. — Ustozning salobati bosadi, albatta. Faoliyatining asosi talabchanlik deb bilaman. Topshiriq berildimi, uni bajarmaslik uchun hech qanday bahonaga o'rin yo'q. Xalqaro tanlovlarga borayotganimga har safar “Bu, avvalo, katta maktab, hammaning oldida yuzingiz yorug' bo'lishi uchun doim qilib yurgan ishingizni chiroyli va xotirjam bajarsangiz bo'ldi. Hayajonning sira keragi yo'q”, deb uqtiradi. Bir gal xalqaro tadbirida ustozim sahnada qo'shiq aytayotganini eshitib, fonogramma deb o'yladim. Biroq jonli ijro ekan. Keyingi tadbirda ham shunday bo'ldi. Undan keyingisida ham domlanning fonogrammadan foydalanганиni ko'rmadim. Faqat jonli ijro etadi. Qolaversa, 7 tilida mukammal gaplasha olishi chet davlatlarda juda qo'l keladi. Masalan, Fransiyadagi konsertda qatnasha, ijrodan avval tomoshabinlar bilan fransuz tilida iliq so'rashib, kuylaydigan qo'shiq' haqida qisqacha gapirib beradi. Ingliz tilida ham shunday. Qoyil qolganman. Chunki har xil sharoit bo'ladi. Ba'zan fonogramma aytishga to'g'ri keladi, lekin ustoz hamisha jonli ijro etadi. Shogirdlaridan ham professionallik kutadi. Shu ma'noda, erishgan barcha yutuqlarimda ustozimning talabchanligi muhim imon.

San'atkor ijrosidagi “Strangers in the Night” nomli qo'shiqni diqqat bilan tinglab, uning inglizcha talaffuzi g'oyat ravon ekaniga, ustoz o'z ustida ko'p ishlaganiga guvoh bo'ldim.

Uyg'urcha, gruzinchani ham o'sha millat vakillaridan kam bilmasligiga havas qildim. Fransuz tilini esa maktabda mukammal o'rgangan. Mansur akaning aytishicha, boshqa tillarda qo'shiq kuylayotgan san'atkor o'z-o'zidan o'sha tillarni o'rganishga ham kuch topadi. Zero, san'atkor o'zi nimani gapirayotganini yaxshi bilishi kerak. Shuning uchunmi, g'oyibona bir kunch ko'proq til o'rganishga undayveradi uni.

2020-yilda “Hamdo'stik yulduzlari” xalqaro mukofotiga sazovor bo'lgan Mansur Toshmatov suhbatimiz so'ngida bunday dedi:

— Ko'p yillardan buyon UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda Xalqaro jaz festivalini o'tkazib kelaymiz. Bundan tashqari, yurimizda o'tkaziladigan yirik madaniy tadbirlarda faol qatnashyapmiz. AQSH, Turkiya, Fransiya, Italiya, Polsha, Daniya, Avstriya singari davlatlarda bo'lib o'tgan konsertlarda ham xorijlik muxassis va muxlislar hurmatini qozondik. Qator viloyatlarda konsert dasturlarini qo'yganimiz. Ayniqsa, bu yilgi “Madaniyat karvoni”dan o'rin olib, el orasiga kirgan kunlarimiz bizni mehnatsevar, san'atsevar xalqimizga yanada yaqinlashtirdi. Nasib qilsa, butun shijoatim, bor kuchimni mamlakatimiz san'ati nufuzini yuqori ko'tarish orqali yoshlarimizda professionalikka intilishni kuchaytirishga sarflayman.

2017-yilda boshiga og'ir sinov kelsa-da, Mansur Toshmatov san'atdan ayro tushmadi. Hindistonlik tajribali shifokor saraton bilan hazillashib bo'lmisligini, shu bois, san'atga doir rejalarni biror yil ortga surib turish kerakligini aytadi. Mansur aka esa shunchaki tekshiruvdan o'tish uchun kelgani, oldinda ko'plab konsertlari, bajarishi lozim bo'lgan ishlari turganini aytdi. Dard qattiq qo'zg'alganda bu dunyo boshqa bir dunyoga aylanib qolishi lahzalik ekanini his qilsa-da, bir zum zimmasidagi vazifalarni unutmaydi. “SAN'ATIM — HAYOTIM, USIZ HECH KIMMAN”, degan o'ng ucha tinchlik bermaydi. Tashna odam singari san'atlash o'lmasligini his etadi. Shu bois, ikki marta o'tkazilgan jarrohlik amaliyoti asorati bitmasdan oldin yana xalqaro sahnalarga chiqdi, hakamlik qildi. Shifokorlar unga 4 kilodan ortiq quy ko'tarmaslikni tayinlansa-da, zildek safar sumkalari bilan xorijiy davlatlarga yo'l oladi. Biroq sportni, parhezni o'rni qo'ydiki. Ruhiyatini ko'ktirmadi. Uning yosh va quvvon ko'rinishi shu shundadir balki. Bir so'z bilan aytganda, estradada ham O'zbekiston nomini tanitish maqsadidan aslo kelmaydi. Yaratgan ijrosi bilan kasallikni yengib o'tdi.

Mana shunday matonatli, san'atdan quvvat olib, faqat olg'a intilayotgan, yosh avlodga o'rnak bo'lib kelayotgan san'atkorga hamisha salomatlik tilaymiz. Nazarimda, Mansur aka allaqachon o'zbek san'ati sahifalarida o'z nomini manguga muhrladi. Endi uni yanada mustahkamlash yo'lida uzoq ijod qilish nasib etsin!

Munajat MO'MINOVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Turizm

Bugun Buxoro viloyatining qaysi go'shasiga bormang, bunyodkorlik, yaratuvchanlikka guvoh bo'lasiz. Shahar va qishloqlar uzra yangilanishlar, o'zgarishlar epkini esmoqda. El-yurt bunyodkorlik og'ushida yashamoqda. Xususan, Buxoro tumani ham hozir tamomila yangicha qiyofaga ega.

2023-yil 17-fevral kuni Prezidentimiz Buxoro viloyatiga tashrif chog'ida mazkur tumanning Rabotiqalmoq mahallasidagi o'zgarishlarni ko'rib, aholi hayoti bilan tanishar ekan: “Mahalladagi o'zgarishlarni, sizning ishi bo'lganingizni ko'rib, xursand bo'ldim. Bular — xalq ichiga kirib, xalq bilan birga qilayotgan sa'y-harakatlarimizning kichik bir natijasi. Agar hokimlik va tashkilotlar sharoit yaratib berolsa, har bir oila o'zini eplab ketolsa, maqsadlarga erishgan bo'laman. Shunda katta oilamiz — davlatimiz ham mustahkam bo'ladi”, degan edi.

Chindan ham Rabotiqalmoq mahallasida odamlarning farovon yashashi, tayinli ishi, daromadli bo'lishi uchun barcha shart-sharoit va qulayliklar mavjud.

So'nggi yillarda mahallada o'ndan ortiq savdo-xizmat ko'rsatish shoxobchasi



Qadim qadriyatlar

JAMLANGAN GO'SHA

ochildi, fuqarolar yig'ini binosi mukammal ta'mirlandi, otalar choyxonasi, kutubxonasi, sport maydonchasi va yixobon barpo qilindi. Ilgari foydalanilmay yotgan, eski, qarovsiz yerda katta tikuvchilik korxonasi ochilib, mahallaning 30 dan ziyod xotin-qizi ishli bo'ldi. Ayniqsa, mahalladagi “Sheyxon” etnomarkazi faoliyati, undagi milliy an'analar, qadimgi urf-odatlarimiz asl ko'rinishi ko'pchilikni befarq qoldirmaydi.

— Tumanimiz viloyatimiz sayyohlik salohiyati boy hududlaridan biri bo'lib, Buxoro shahriga yaqin, xalqaro magistral yo'l bo'yida joylashgan, — deydi tuman hokimi Anvarjon Ochilov. — 8 mingdan ziyod aholi yashaydigan Rabotiqalmoq mahallasi esa

so'nggi yillardagi yangilanishlar bayroqdori bo'lib turibdi. “Sheyxon” etnomarkazi va “Naqshband” hunarmandlik markazi tashkil etilishi nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlar oqimi ko'payishiga ham sabab bo'lmoqda. “Sheyxon” etnomarkazi yozgi va qishki hovlidan iborat. Loyiha qiymati 400 ming dollar bo'lgan bu maskan 15 sotix yerda barpo etilgan. Mahalliy sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikda etnomarkazni yangi sayyohlik yo'nalishiga

kitirishni maqsad qilganmiz. Eng asosiysi va qizig'i, xoh mahalliy, xoh xorijlik sayyoh bo'lsin, uning faoliyatida bevosita ishtirok etishi mumkin. Markazda milliy taomlar tayyorlash bo'yicha mahorat darslari ham o'tkaziladi. Hali bu yerda qilinadigan ishlar, maqsadli rejalarmiz, yangi loyihalarimiz juda ko'p.

Buxoroning qadim go'shalarini ziyorat qila turib, Rabotiqalmoqqa borib qolsangiz, birinchi o'rinda, uning tabiati, bugungi kunda

kam uchraydigan majnuntol va qoratol daraxtlari sizni maftun etishi bor gap. “Sheyxon” etnomarkazi jozibasiga esa ta'rifi sig'maydi. Xorijlik va mahalliy sayyohlarning sevimli maskaniga aylanayotgan bu markaz yaqin kelajakda yurimimizning yangicha turistik salohiyatini namoyon etuvchi ko'zgularidan biri bo'lishiga shubha yo'q.

Rabotiqalmoqda yashovchi aholi azaldan dehqonchilik, hunarmandlik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan. Bu yerdagi qadimiy

inshootlar, milliy urf-odatlar bugungi kunga qadar aslicha saqlanib qolgan. Etnik hududda turizm klasterini tashkil etishda sho'rdanak, quruq mevalar, milliy shirinliklar, poliz ekinlari va hunarmandlik mahsulotlari tayyorlash jarayonining avlodidan avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklari hisobga olingan.

Ushbu mahsulotlarni tayyorlash jarayonida qishloq ayollari har bir ko'chadan bitta xonadonda yig'ilib, qadimgi rivoyatlaridan aytdi, milliy kuy-qo'shiqlar ijro etib, laparxonlik qiladi. Bu jarayonlar etnomarkaz faoliyatini tashkil etishda ham alohida e'tiborga olingan. Tashrif buyuruvchilar mahalliy hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasi, folklor namunalari bilan tanishishi, qolaversa, milliylikimizni aks ettiruvchi ko'plab qiziqarli loyihalarda o'zlari ham ishtirok etishi mumkin.

Markaz hududida “jonli burchak” tashkil etilib, turli uy hayvonlarini parvarishlash va ko'paytirish ham ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, hududda supermarket, dorixona, go'zallik saloni, axborot markazi, tikuv sexi, turoperator ofisi, pochta xizmati, avia va temir yo'l chiptalari kassasi, suvenir do'koni kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlari mavjud.

Lo'nda aytganda, “Sheyxon” etnomarkazi barchani birday o'ziga chorlovchi, qadriyatlarimiz jamuljam bo'lgan go'sha. Yo'lingiz tushsa, albatta, boring, ketgan vaqtigizga, yurgan yo'lingizga sira achinmaysiz.

Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3795. 41218 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhir: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 21:10 Topshirildi — 23:55